

**MUHAMMAD ALINING “BUYUK SALTANAT” ASARIDA  
PRAGMALINGVISTIK (PRESUPPOZITSIYA VA TAGMA’NO)  
VOSITALARNING QO‘LLANILISHI**

**Anvarova Zohida Akromjon qizi**  
Andijon davlat universiteti doktoranti

***Annotatsiya:** Tilshunoslik tarixida inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Lisoniy ta‘limot asosida inson nutqiy faoliyati yotadi. [1. 5] Tilshunoslikning yana bir ilmiy nazariy tarmog‘i pragmatika sanalib, inson ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat va nutq ishtirokchilarning kommunikativ niyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi. Ushbu maqolada lingvistik pragmatikaning tarkibiy tushunchalardan biri bo‘lgan presuppozitsiya va tagma’no tushunchalari qiyosiy tahlili “Buyuk saltanat” asaridan olingan tarixiy-badiiy matn parchalari orqali ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** presuppozitsiya, pragmalingvistika, lingvopragmatika, lingvistik pragmatika, tag ma’no, adresant, adresat, diskurs, nutqiy vaziyat, pragmatik maqsad, kommunikativlik, nutqiy akt.*

***Annotation:** In the history of linguistics, the study of issues related to human speech activity has been gaining significant scientific and theoretical importance. Linguistic teaching is based on human speech activity. Another scientific theoretical branch of linguistics is pragmatics, which studies issues related to the speech process, speech situation, and the communicative intention of speech participants, which reflects human social activity. In this article, a comparative analysis of the concepts of presupposition and subtext, which is one of the structural concepts of linguistic pragmatics, is revealed through historical-artistic text fragments taken from the work "Great Empire".*

***Key words:** presupposition, pragmalinguistics, linguopragmatics, linguistic pragmatics, meaning, addressee, addressee, discourse, speech situation, pragmatic goal, communicativeness, speech act.*

***Аннотация:** В истории языкознания изучение вопросов, связанных с речевой деятельностью человека, приобретает значительное научное и теоретическое значение. Лингвистическое обучение основано на речевой деятельности человека. Другой научно-теоретической отраслью языкознания является прагматика, изучающая вопросы, связанные с речевым процессом, речевой ситуацией, коммуникативной интенцией участников речи, отражающей социальную деятельность человека. В данной статье через историко-художественные текстовые фрагменты, взятые из произведения*

*«Великая империя», раскрывается сопоставительный анализ понятий пресуппозиция и подтекст, являющихся одним из структурных понятий лингвистической прагматики.*

**Ключевые слова:** пресуппозиция, прагмалингвистика, лингвопрагматика, лингвистическая прагматика, значение, адресат, адресат, дискурс, речевая ситуация, прагматическая цель, коммуникативность, речевой акт.

Pragmatika tushunchasining rivojlanishi falsafa borib taqaladi. U falsafiy tushuncha sifatida quyidagi ma’noni anglatadi. Yunoncha “pragma” – ish-harakat ma’nosini anglatadi. U semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o’rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o’zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o’rganuvchi fan tarmog’idir. [12. 387]

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo’nalishi sifatida o’tgan asrning 60-70-yillarida shakllandi. 1970-yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi” mavzusida xalqaro konferensiya bo’lib o’tdi. Ushbu anjumanda o’qilgan ma’ruzalar to’plamining muharriri, Tell-Aviv universitetining professori M.Bar-Hillelning «So‘zboshi»da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan «Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariya doirasida o’rganilishi lozim», degan xulosaga kelishdi. Pragmatikaning “qayta tug’ilish davri” - deb e’tirof etilgan xuddi shu paytdan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik ko’tarilish yuzaga keldi. [11. 99]

O‘zbek olimlaridan biri Sh.Safarov ushbu yangi tarmoqqa ta’rif berar ekan, bir qancha chet ellik olimlarning keng va tor ma’nodagi tahlillarini uyg’unlashtiradi va sodda, tushunarli umumiy-mukammal ta’rifni berib o’tadi: “Pragmatikaning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarning tanlab olish, ularni qo’llash va ushbu qo’llanishlardagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o’rganiladi. Lisoniy birliklarning nutq jarayonidagi bajarayotgan vazifalarini tahlilga tortish pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir”. [7. 76] Pragmalingvistikaning asosiy maqsadi matn orqali tilni tadqiq qilish ijtimoiy jarayonlarda tilni kommunikativ vosita sifatida tadqiq qilishdir. [5. 11]

Pragmalingvistik vositalar so‘zlovchi nutqini yanada jozibador qiluvchi va kommunikativ maqsadni yorqinroq ifoda eta oluvchi asosiy vositalar sanaladi. Badiiy matn tahlilida esa bu kabi vositalar, odatda, muallif maqsadini namoyon qilish uchun qo’llaniladi.

Mana shunday pragmalingvistik vositalardan biri presuppozitsiya. U inferentsiyaning xususiy ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Ifodalanayotgan fikr-hukm

haqiqiy yoki o‘rinli ekanligi inobatga olinadi. [7.123] Ilm ahli tomonida presuppozitsiya va tagma’no tushunchali ko‘pincha egizak tushunchalar sifatida qaraladi va talqin qilinadi. Masalan, Sh.Safarov o‘z izlanishlarida tagma’no va presuppozitsiya haqida qimmatli fikrlar bildiradi. Avvalo, presuppozitsiyada berilayotgan hukmning aniqligi va muhimligini e‘tiborga olish kerakligini aytib o‘tadi. Buning uchun muloqot ishtirokchilari muhokama qilinayotgan fikr haqida umumiy mulohazlarga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tadi. [7.123] Bu tushunchalarni o‘zaro ayri tarzda tahlil qilgan A.Pardayev esa presuppozitsiyani har qanday gapda turli tarzda namoyon bo‘luvchi tushuncha sifatida biladi. Shuningdek, u ushbu hodisani asosiy mantiqiy xulosa bilan bog‘laydi va fikrning rostligi, semantik jihatdan anomal bo‘lmasligi hamda kontekstda o‘rinli qo‘llanila olishi shart deb hisoblaydi. [5.33] Yana bir olim M.Hakimovning monografiyasida bu ikki tushunchani N.Mahmudovning qarashlariga qo‘shilgan holda quyidagicha tahlil qiladi: “Presuppozitsiya muammosining o‘rganilishi gapning semantik-sintaktik qurilishi, matn tarkibidagi gapning aloqasi, shuning bilan birga semantik-sintaksisning yana bir qator muhim masalalarini obyektib tadqiq qilishga imkon bergani kabi, [3.28] tagma’no muammosining o‘rganilishi ham matn uslubi va pragmatikasiga bog‘liq yana bir qator muhim masalalarni tadqiq etishga yordam beradi. [1.111] Turkiy tillar sirasiga kiruvchi turk tilshunosligida esa presuppozitsiya hodisasiga quyidagicha ta’rif berilganligini bilishimiz mumkin: “Presuppozitsiya – kontekstda haqiqatligi aniq bo‘lgan matnda yashirin holda saqlanuvchi va asosan so‘zlovchiga tegishli hodisadir”. [2]

Umuman olganda, olimlarimizning har biri o‘z ilmiy izlanishlari natijasi ma’lum xulosalar bergan va, albatta, buning ortida necha yillik mehnat mashaqqatlar yotibdi. Pragmatik tahlil uchun matn eng asosiy omil, ammo badiiy matn tahlili birozgina murakkab jarayon. Akademik V.Vinogradov “Badiiy asar tilini tahlil qilish asar g‘oyasi bilan bog‘liq hissiy mazmuni ifoda etuvchi lingvistik vositalarni ko‘rsatib berishdir”, - deb bejizga aytmagan. [10. 105-211] Ammo zamonaviy badiiy matnlardan ko‘ra tarixiy badiiy matnlarni tahlil qilish birozgina murakkabroq kechadi, chunki tarixiy manbalar o‘zida tarixni, tarixiy shaxslarning menini, qarashlarini va fikrlash tarzini ifodalab turadi. Mana shunday tarixiy asarlardan biri Muhammad Alining “Buyuk saltanat” tetralogiyasidir. (Lingvistik tahlilga tortilgan har qanday manba matn sifatida olinishini inobatga olsak, badiiy asarlarni ham badiiy matn deb yuritganimiz ma’qul sanaladi).

Pragmatik tahlil uchun pragmatikaning eng asosiy tushunchalaridan biri presuppozitsiya va tagma’noni oldik. Bu ikki tushuncha asarda qanday ifodalangan misollar orqali ko‘rib chiqamiz: ...Kutilmaganda o‘rta bo‘yli, ko‘zlari irg‘ib chiqqan, qirqlar chamasidagi Amir Muso o‘rnidan turib, qo‘l qovushtirdi-da, bunday dedi:

Bir xatarli ishni sizlarga aytishni ma'qul ko'ramen. Amir Husayndan ehtiyot bo'lmoq kerak. Tushundik, u yana makr-u hiylalar yo'liga kiribdur... - Amir Muso "tushundik" so'zini bo'lsa-bo'lmasa ishlata berar edi. – G'aflatda qolmaylik, deymen. Ul badbaxt ilgidan har narsa keladur... [4. 3]

Matnning o'zida avval ma'lum jumlar orqali tagma'noning berilishi va keyin kelayotgan jumalarda qahramon tomonidan ochib berilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, yuqoridagi jumlada "xatarli ishni" birikmasi ostida yashiringan tagma'no keyingi jumladagi "Amir Husayndan ehtiyot bo'lmoq kerak" jumlasiga orqali ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan shu jumladagi tagma'no esa Tushundik so'zi orqali so'zlovchi va tinglovchiga ma'lum ekanligini ifodalaydi. Yuqoridagi parchada presuppozitsiya quyidagicha namoyon bo'ladi: Amir Husaynning borligi; Yomon va kutilmagan nohush vaziyatlar bo'lishi haqida xabar berishga urinish "yana makr-u hiylalar yo'liga kiribdur" jumlasiga yuklatilgan.

Shuningdek, matnda presuppozitsiya hodisasiga yaqin turuvchi implikatura hodisasini ham uchratishimiz mumkin. Bu ikki hodisa alohida ma'no mazmunga ega hisoblanadi. Implikatura doimiy bo'lmagan, matnda tez o'zgarib turadigan, hatto yo'qolishi mumkin bo'lgan ma'no. Implikaturaning presuppozitsiyadan asosiy farqi u butunlay ma'no doirasiga kirishidadir, chunki lisoniy shaklning o'zgarishi unga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi. [7.133] Yuqoridagi matnda "Ul badbaxt ilgidan har narsa keladur" jumlasiga orqali implikatura yanada ochiq namoyon bo'ladi. Matnning umumiy mazmunida esa Amir Husayn qo'lidan har narsa keluvchi yovuz inson yashirin ma'nosi anglashilib turadi. Matnda ilgidan har narsa keladur iborasi tarkibida ilig tarixiy so'zi qo'llangan. Ilig-qo'l (O'zbek tili izohli lug'ati) ma'nosi anglatadi. Ilgidan kelmoq iborasi esa hozirgi kunda qo'lidan har narsa kelmoq iborasiga mos keladi. Ushbu ibora bajarishga, qilishga qodir bo'lmoq, bajara olmoq, qila olmoq ma'nolarini anglatadi. [13. 437]

Keyingi jumalarning tagma'nosidan so'zlovchining o'zi (Amir Muso) ham ikkiyuzlamachi ekanligi va unga ko'p ishonib bo'lmasligi "fe'l-atvorini aniqlab bo'lmas darajada bir odam" jumalari orqali namoyon bo'ladi: Amir Musoning so'zlari qanchalik xatarli bo'lmasin davradagilarga unchalik ta'sir qilmadi. Tabiati bahor havosi kabi o'zgaruvchan bu amirning ahd-u paymoni ham shunga munosib, bir kuni Temurbek tarafida ayyuhannos solib bot sursa, boshqa kuni sidqidil Amir Husayn qilichini chopar, fe'l-atvorini aniqlab bo'lmas darajada bir odam edi. [4. 3]

Matnda presuppozitsiya esa quyidagicha namoyon bo'lgan: Amir Muso oldin ham davradagilarni aldaganligi davradagilarga unchalik ta'sir qilmadi birikmasi orqali, U o'zgaruvchan odam ekanligi tabiati bahor havosi kabi birikmasi orqali ochib berilgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tagma'no va presuppozitsiya bir-birini to'ldiruvchi alohida tushunchalardir. Bunday vaziyatlarda tinglovchi so'zlovchi

ichki niyatini aks ettiruvchi tag ma'noni anglaydi va oshkora verbal ifoda bilan bayon qiladi. [9. 146] Yana bir parchani ko'rib chiqsak:

-Tag'in fitna tuxumini sohib, turli g'avg'olarga boshlamang bizni!- birdan so'zga aralashdi qisqa mo'ylobli, uzun cho'qqi soqolli Amir Joku barlos. - Avvallari ham ko'rganmiz, ha!... [4. 4]

Bu yerda, turli g'avg'olarga boshlamang birikmasi orqali tinglovchilarni ichki nizolarga chorlash va turli kelishmovchiliklar keltirib chiqarish orqali ayrib yuborishga urinmaslik haqida ogohlantirish ko'rinishidagi tagma'noni uchratamiz. Turli nizolar keltirib chiqarishi natijasida davradagilarga ko'plab ziyon-zahmat yetkazganligi yashirin holda berilishi Avvallari ham ko'rganmiz birikmasi orqali ifodalanadi. Tagma'no bilan bir qatorda presuppozitsiya ham namoyon bo'ladi: Oldin ham turli nizolar keltirib chiqarishga urunganligi; Yana shunday ish qilishi mumkinligi; Amir Muso fikrlarini tanqid qilish.

Asarda yana ko'plab mana shunday tagma'no va presuppozitsiyaning namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin! Umuman olganda, zamonaviy badiiy matnlardan ko'ra tarixiy badiiy matnlarni pragmatik tahlil qilish birozgina murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, bunday tarixiy asarlar uydurmalar bilan bir qatorda, tarixiy haqiqatlar bilan ham boyitilgandir. Ularga faqat yozuvchi nazari bilan qaraganda to'liq tahlil qilish mumkin! Ushbu tahlillardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin.

-tagma'no so'zlovchi va tinglovchi ma'lum bo'lgan ma'lumotlar asosida namoyon bo'ladi;

-tarixiy asarlarda bu kabi unsurlar ham tarixiy, ham lingvistik maqsadlarda qo'llangalingini ko'rishimiz mumkin;

-zamonaviy badiiy matnlardan ko'ra tarixiy badiiy matnlar tahlilida tagma'no tushunchaki kengroq va aniq bir yashirin maqsadni ko'zlab qo'llanganligi namoyon bo'ladi.

-tarixiy badiiy matnlarda adresat va adresantning portreti chizilishida nutqiy vaziyatga bog'liq holda ma'lum bir kommunikativ maqsadlarning ifodalanishini kuzatishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1.ҲАКИМОВ М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr. 2013.

2.<https://acikders.ankara.edu.tr/mod/resource/view.php?id=115975>

3.Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. // O'TA 1986. №6.

4.Muhammad Ali. Buyuk saltanat. //Birinchi kitob. –T., 2003.

5.Pardayev A. Pragmatik lingvistika. – Samarqand. 2013.

6.Rahimov S. R., Niyozova D.A. // ma'ruzalar matni.

7.Safarov Sh. . Pragmalingvistika. –Toshkent. 2008.